

1.O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirib bergach sinfdagi o'quvchilarni o'zi guruhlarga bo'ldi. Duskaga jadval chizib uni mavzuga oid ma'lumotlar bilan to'ldirishlarini so'radi. O'qituvchi bergan topshiriq Blum taksonomiyasining qaysi darajasida qo'llaniladi?

A) Bilish

B) Tushunish

C) Tahlil qilish

D) Sintez

2. O'qituvchi dars davomida uyga berilgan vazifani tekshirdi, o'tilganlarni takrorlash uchun savol-javob o'tkazdi, yangi mavzuni yoritgach, olingan bilimlarni mustahkamlash uchun o'quvchilar bilan turli mashqlar bajardi. So'ng uyga bajariladigan vazifalarni tushuntirdi va darsni yakunladi. Bunda u darsning qaysi turidan foydalandi?

A) Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsi

B) Aralash (kombinatsiyalangan) dars

C) Olingan bilimlarni tekshirish darsi

D) Ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish darsi

3.Oqituvchi o'quvchilarga dars jarayonida uyga vazifa sifatida bir maqol berdi. O'quvchilar maqolni birgalikda sahna ko'rinishi qilib tayyorlashdi. Mavzu to'laqonli yoritib berildi. Barcha o'quvchilar faol qatnashdi va maqol chiroyli yoritildi.

Bunday holatda o'qituvchi tomonidan qaysi metod samarali qo'llandi?

A) Loyiha ishi

B) Interaktiv

C) Interfaol

D) Didaktik o'yin

4. Pedagog ota-onalar va o'quvchilar bilan suhbatda so'z boyligining kengligi, fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega ekanligi, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olishini namoyon etadi. Suhbat jarayonida gaplarining ketma-ketligi bir-biriga to'g'ri kelishi va izchilligi hammani hayron qoldiradi. Bunda pedagog nutqining asosiy xususiyatlaridan qay birini mohirona qo'llagan hisoblanadi?

A) Nutqning mantiqliligi

- B) Nutqning tozaligi
- C) Nutqning ifodaliligi
- D) Nutqning go'zalligi

5. O'qituvchilar xonasida ikki o'qituvchi o'zaro suhbat jarayonida bir-birlarini tushunmasligi natijasida o'rtada nizo kelib chiqdi. Holatni kuzatib o'tirgan maktab psixologi ularni holatini, fikrlarini bir birlariga tushuntirib berdi va ularni yarashtirib qo'ydi. Bir birlarini tushungan o'qituvchilar bir birlaridan uzur so'rab, yana suhbatlarini davom ettirdilar. Ushbu vaziyatda refleksiyaning qanday turi namoyon bo'lmoqda?

- A) intellectual refleksiya
- B) shaxsiy refleksiya
- C) kommunikativ refleksiya
- D) kooperativ refleksiya

6. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari KRS darsida bolaning rivojlanishini, o'sib ulg'ayishini nimaga o'xshatasiz degan savolga o'zlaridan kelib chiqib ramziy ma'noni anglatuvchi tasvir chizdilar va buni o'zlari izohlab berdilar. Ushbu vaziyatda qanday metod namoyon bo'lmoqda?

- A) Illyustratsiya
- B) Demonstratsiya
- C) Amaliy metod
- D) Mashq

7. 4-sinf rahbari darsdan tashqari tadbirlarda juda yaxshi natijalar ko'rsatdi. Sinf o'quvchilari orasida ham ijobiy ruhiy muhit o'rnatilgan. Sinf o'quvchilari odobli, madaniyatli.

O'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining qanday qobiliyati rivojlangan?

- A) Muloqot qilish qobiliyati
- B) Voqealarni oldindan ko'ra bilish qobiliyati
- C) Shaxsning ichki olamini ko'ra bilish qobiliyati
- D) Mantiqiy qobiliyati

8. "O'qituvchi o'quvchiga turli xil tadqiqot ko'rsatdi va Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligini baholang" kabi topshiriq Bloom taksonomiyasining qaysi darajasiga mos keladi?

A)bilish

B)tushunish

C)qo'llash

D)baholash

9. Maktabga yangi qabul qilingan fizika fani o'qituvchisi darsga kirishidan oldin kiradigan sinfining ta'limiy-tarbiyaviy holati, qiziqishlari, ehtiyojlarini inobatga olib darga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Ushbu vaziyatda o'qituvchining darsga tayyorgarligining qaysi bosqichi namoyon bo'lmoqda?

A)tashxislash

B)loyihalash

C)rejalashtirish

D)bashoratlsh

10. Maktabda to'qqizinchi sinf o'quvchisida o'zgarishlar kuzatilmoqda. Avval yaxshi o'qigan, lekin o'qishi shu kunlarda orqaga chekinmoqda. Bundan tashvishlangan ustozlar maktab psixologini ish olib borishini tavsiya qilishdi. Lekin Bu o'quvchi bundan bosh tortdi. Ushbu vaziyatda psixolog bolaning holatini aniqlash uchun qanday metoddan foydalanishi mumkin?

A)pedagogic kuzatish

B)suhbat

C)anketa

D)tajriba

11. Maktabda ona tili va adabiyot o'qituvchisi yosh bo'lishiga qaramay maktabda kashkil etiladigan turli tanlov, musobaqa, badiiy kechalarni tashkil qilishda vaqt reglamentiga, tadbir boshlanish, kulminatsion nuqta va natijaviy yakunga alohida e'tibor qaratadi. Bu ishidan doimo ushbu o'qituvchidan tashkiliy masalalarda boshqalar yordam so'rashadi. Ushbu vaziyatda o'qituvchining qanday qobiliyati namoyon bo'lmoqda?

A)didaktik qobiliyat

B)anglash qobiliyati

C)bilish qobiliyati

D)konstruktiv qobiliyat

12. ONA TILI VA ADABIYOT O`QITUVCHISI BOLALARGA OT SO`Z TURKUMI HAQIDA QOIDANI AYTIB BERISHINI SO`RADI BOLA QOIDANI O`Z BILGANLARI ASOSIDA AYTIB BERDI USHBU HOLATDA BLUM TAKSANOMIYASINING QAYSI BOSQIICHIGA TO`G`RI KELADI

A)bilish

B)tushunish

C)tahlil qilish

D)sintez

13. O`QITUVCHI DOSKAGA DARYO VA DENGIZNING RASMINI ILDI VA O`QUVCHILARDAN BULARNING O`XSHASH VA FARQLI TOMONLARINI, BOG`LIQLIKLARNI AYTISHNI SO`RADI . BUNDA BLUM TAKSONOMIYASINING QAYI BOSQICHIGA TO`GRI KELMOQDA

A)bilish

B)tushunish

C)tahlil qilish

D)sintez

14. FIZIKA FANI O`QITUVCHISI DOSKAGA NYUTON FORMULASINI YOZDI VA O`QUVCHILARGA SHU FORMULA ASOSIDA O`ZLARI MASALALARNI YECHISHLARINI AYTDII

A)bilish

B)qo`llash

C)sintez

D)baholash

15. Geografiya fani o`qituvchisi vulqon va uning turlari haqida ma`lumot berdi.Darsni yanada qiziqarli bo`lishi uchun vulqon otilishini 3HD formatda virtual holatda namoyish etdi. O`qituvchi qaysi metoddan foydalandi.

A)Tasvir

B)Tushuntirish

C)Namoyish

D)Amaliy

16. O'qituvchi o'quvchilarga dars jarayonida uyga vazifa sifatida bir maqol berdi. O'quvchilar maqolni birgalikda sahna ko'rinishi qilib tayyorlashdi. Mavzu to'laqonli yoritib berildi. Barcha o'quvchilar faol qatnashdi va maqol chiroyli yoritildi. Bunday holatda o'qituvchi tomonidan qaysi metod samarali qo'llandi?

A) Loyiha ishi

C) Interfaol

B) Interaktiv

D) Didaktik o'yi

17. Ustoz Saida opa doimiy ravishda faniga doir "Ustoz" jurnalining va "Mahoratli Ustoz" o'quv markazining qo'llanmalarini o'qib, olgan bilimlarini darslari davomida qo'llab boradi. Shunda Saida opa "O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish" yo'nalishining qaysi mehnat ko'nikmasini amalga oshiradi.

A) Doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash B) Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni taminlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashish

C) Maqsadli ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari" da qatnashish

D) O'zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish

18. O'qituvchi tumandagi boshqa maktabga borib tajribali o'qituvchining darsini kuzatdi. O'rgangan bilimlarini o'z darslarida qo'lladi. Bunday holatda o'qituvchi o'z o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish kompetensiya standartining qaysi vazifasini bajardi?

A) Doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash B) Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni taminlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashish

C) Maqsadli ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari" da qatnashish

D) O'zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish

19. 8-sinf o'qituvchisi bir o'quvchisining o'zlashtirishini va qiziqishlarini tahlil qilish uchun boshqa soha vakillari, psixolog va maktab metodisti bilan maslahatlashdi.

Bolaning o'zlashtirishni tahlil qilib unga yordam beririshga qaror qildi. Bunday holatda o'qituvchi qanday mehnat harakatini amalga oshirgan hisoblanadi?

A) O'quvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlanishiga hissa qo'shish.

B) AKT dan foydalanish

C) Pedagogik va psixologik bilimlardan foydalanib, pedagogik vaziyat va hodisalarni kuzatib borish, ularni tahlil qilish.

D) Muayyan o'quvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashish

20. Ingliz tili o'qituvchisi yangi mavzuni o'tishdan oldin o'quvchilarning bilimlarini quiz test orqali sinab ko'rdi. Bunday holatda o'qituvchi baholashning qaysi turidan foydalangan?

A)formative

B)summative

C)diagnostic

21. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirib bergach sinfdagi o'quvchilarni o'zi guruhlariga bo'ldi. Duskaga jadval chizib uni mavzuga oid ma'lumotlar bilan to'ldirishlarini so'radi. O'qituvchi bergan topshiriq Blum taksonomiyasining qaysi darajasida qo'llaniladi?

A)sintez

B)qo'llash

C)bilish

D)tushunish

22. Yozgi tatil vaqtida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'z ustida ishlab tayyorlov guruhlarida ishtirok etdi. O'quv yili boshidan boshlab bu o'qituvchi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyalarini qo'llab, o'quvchilarning darsda faolliklarini oshirmoqda. Bunda "pedagogik texnologiya" tushunchasining qaysi darajasi namoyon bo'lmoqda?

A)Lokal daraja

B)makro daraja

C)mikro daraja

23. Matematika fani o'qituvchisi Baxodir aka darsda o'quvchilar zerikib qolayotganini sezdi. U bolalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini qayta uyg'otish uchun turli texnologiyalardan foydalandi. Bu orqali o'quvchilarning faolligiga erisha oldi. Bunday holatda o'qituvchi kasbiy kompetentlikning qaysi mehnat harakatini bajargan hisoblanadi?

A) Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejarini ishlab chiqish
B) O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtirish

C) O'z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish.

D) O'quvchilarning bilimni baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarni muvofiqlashtirish.

24. Direktor o'rinbosari yosh mutaxassisning darslarini nazorat qildi. Dars jarayonida yosh mutaxassis o'quvchilar bilimni nazorat qilib, yangi mavzuni tushuntirdi. Yangi mavzuni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratdi. Bunda u o'quvchilarning qabul qilish darajasi turli ekanligini hisobga olib, har bir o'quvchiga mos ravishda vazifalarni taqsimlab berdi. Dars so'ngida yangi mavzu barcha o'quvchi uchun birdek tushunarli ekanligi ma'lum bo'ldi. Shunda o'qituvchi ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun kerakli bo'lgan qanday ko'nikmalarni namoyon etadi?

A) Mazmunli ta'lim muhitini tashkil qilish va o'zgartirish

B) Turli xil muhitda har xil emotsional holatlardagi odamlar bilan aloqa qila bilish

C) O'zining ta'lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiya talab qiladigan yo'nalishlarni aniqlash

D) Dars vaqtini oqilona boshqarish, shuningdek mas'uliyatli va onli ravishda o'quvchilar ishini tashkil etish

25. Darsda bir o'quvchi doim vazifalarni birinchi bajarib qo'yib boshqalar tugatguncha zerikib qoladi. Bunday holat takrorlanmasligi uchun o'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?

A) Tengdoshlari tugatguncha faol o'quvchini qiyinroq vazifa bilan band qilish kerak

B) Vazifani osonlashtirish kerak shunda barcha birdek tugatadi va sinfda tabaqalanish yuzaga kelmaydi

C) O'quvchiga tez bajarib qo'ymasligini tushuntirish kerak

D) O'quvchi vazifani bajarib bo'lgach boshqa o'quvchilarning vazifalariga yordam berishiga ruxsat berish

26. O'qituvchi "Yerning tuzilishi" mavzusini o'rgatishda darslikdagi rasmlar, atlas xarita, slayd va diagrammalardan foydalandi. Har bir qatlamni tushuntirishda u tasvirni ko'rsatib, unga sharh berdi va o'quvchilar e'tiborini rasmga asoslangan tushunishga qaratdi. Bu holatda o'qituvchi qaysi metoddan foydalangan?

A)tushuntirish metodi

B)tasvir metodi

C)namoyish metodi

D)amaliy metod

27. Respublika pedagogika fani fan doktor o'qituvchilari birgalikda yangi ta'lim metodini ishlab chiqdilar, amaliyotda kuzatdilar va uning samaradorligini kafolotlab, amaliyotga eng tatbiq qildilar. Bunda "pedagogika texnologiya" tushunchasining qaysi bosqichi namoyon bo'lmoqda?

A)umupedagogik xususiyat

B)xususiy-metodik

C)lokal

28. Maktabga yangi kelgan ingliz tili fani o'qituvchisi ochiq dars tashkil qildi. Dars davomida bu o'qituvchining o'z fanini chuqur bilishi, boshqa fanlardan qisman xabardor ekanligi va fan yuzasidan o'rgangan bilimlarini amaliyotda juda yaxshi qo'llay olishi ma'lum bo'ldi. Bunda o'qituvchining qanday qobiliyati namoyon bo'lmoqda?

A)tashkilotchilik qobiliyati

B)bilish qobiliyati

C)konstruktiv qobiliyat

D)anglash qobiliyati

29. Matematika fani o'qituvchisi darsda o'quvchilar zerikib qolayotganini sezdi. U bolalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini qayta uyg'otish uchun turli texnologiyalardan foydalandi. Bu orqali o'quvchilarning faolligiga erisha oldi. Bunday holatda o'qituvchi kasbiy kompetentlikning qaysi mehnat harakatini bajargan hisoblanadi?

A) Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalari ishlab

chiqish

B) O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtirish

C) O'z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya

tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish.

D) O'quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarni muvofiqlashtirish.

30. Tarbiya fani o'qituvchisini bolalar judayam yaxshi ko'rishadi chunki ustoz bolalar doimiy erkin samimiy muloqot qiladi. Ularni yosh bo'lsada shaxs sifatida qabul qiladi. Har bir bildirgan fikrlarini qadrlaydi. Bolalar bu ustoz bilan darsda va darsdan tashqari holatlarda ham suhbatlashishni yaxshi ko'rishadi. Bunday holatda o'qituvchida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning qaysi zaruriy ko'nikmasi namoyon bo'ladi?

A) Bolalarning madaniy tafovutlari, jinsi, yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim faoliyatini tashkil qilish

B) Bolalar bilan muloqot qilish, ularning qadr-qimmatini tan olish

C) O'quvchilarni ta'lim va tarbiya jarayoniga jalb qilish, ularning o'quv va bilim faoliyatiga qiziqtirish maqsadida o'quv guruhlarini boshqarish

D) Bolalar jamoasida ishbilarmonlik, do'stona muhitni qo'llab-quvvatlash